

ISSN 2181-7839

1
2015

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

PUBLIC EDUCATION
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.xtj.uz



TAHRIRIYAT

Ilmiy-pedagogik va o'quv-metodik nashrlar orqali axborot xavfsizligini ta'minlash – asosiy vazifalarimizdan biridir..... 4

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Hikmatilla RASHIDOV, Zulfiya DEXKAMBAYEVA. Maktab o'quvchilari o'rtasida intizomlilikni shakllantirishning tashkiliy – metodik omillari..... 6

Dilafroz XIDOYATOVA. O'quvchi kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari..... 11

Azamat O'ROLOV. O'zbek tili morfemikasining tarixiy jarayonlarini o'rganishda lingvistik kompetentlik..... 15

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

Sunatulla ABDIRASILOV. Tasviriy san'at ta'limida tarixiy va mifologik portretlarni badiiy idrok etish orqali mashg'ulotlarni tashkil etish..... 19

Tatlimurat ATAMURATOV, Komol PALIMBETOV. O'quvchilarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda xalq dostonlarining o'rni..... 24

Shaylovbek SAIPNAZAROV, Malika ORTIQOVA. Umumiy o'rta ta'limning matematika darslarida iqtisod masalalarini yechishning noodatyi usuli..... 28

Muhabbat RUZMETOVA. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishning maqsadi va ta'lim mazmuni..... 32

Dilorom SALIYEVA, Shoirra DUSMUXAMEDOVA. Kichik maktab yoshida o'quv mustaqilligi va o'quvchi shaxsi motivatsion sohasining o'zaro bog'liqlik xususiyatlari..... 36

Bahodir QO'CHQOROV. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning samarali usullari..... 40

Mehribon RAHIMOVA. Ona tili fani bo'yicha darslarni interaktiv va noan'anaviy metodlar asosida tashkil etish..... 45

TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

Baxodir KAMOLOV. Darsliklar va ularda uchraydigan ayrim kamchiliklar xususida..... 49

HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA

Hamida TO'YCHIYEVA. Demokratik-huquqiy davlat hamda erkin fuqarolik jamiyatini qurishda o'quvchi-yoshlarga huquqiy bilim berish tamoyillari..... 54

Muxidin MUSAYEV. Voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarlikning oldini olishda oiladagi muhitning roli..... 59

Shirinoy MUSTAFAYEVA. Voyaga yetmaganlar o'rtasida suitsid holatlarining psixoprofilaktikasi..... 63

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

Abduqayum ABDULLAYEV. O'quv-tarbiya jarayonida xalq o'yinlari vositasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish..... 68

MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

Muqaddas ABDULLAYEVA. Pedagog kadrlarni strategik maqsadlar asosida tayyorlash va malakasini oshirish omillari..... 72

MUSIQA VA SAN'AT

Davron QODIROV. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining VII sinf o'quvchilarida musiqa fanini o'qitishning dolzarb masalalari..... 78

MAKTA

Manzuraxon T
bolalarni kasb-
Dono Babayev
madaniyatini sh

TA'LIM

Sardorbek AB

TA'LIM

Iroda TO'RAQ
ma'naviyatini sh

TA'LIM

Nargiz NISHO
shakllantirishda

TA'LIM

A'lamjon IBRA
foydalanishda u

MASOF

Baxtiyor PO'LA
pedagogik xusu

PSIXOL

Feruza AKRAM
Ozodaxon ABD
zo'riqish holatla

METOD

Елена Наумов
нравственного

КАЧЕС

Дилором ША
инструмент оц

МУЗЫК

Ниссо ХАЛИМ
музыкального с

МЕЖДУ

Ирина САЦЮК
Азамат АКБАР
обязанности уч

ПРОФЕ

Озода АБДУЛ
информатики к

Dilafruz XIDOYATOVA,

Toshkent shahar PKQTMOI katta o'qituvchisi

O'QUVCHI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL TA'LIMNING NAZARIY-AMALIY JIHLTLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchi kompetensiyasini shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadli tashkil etish yo'llari haqida so'z boradi. Shuningdek, muallif darsning samaradorligini oshirish bo'yicha yangi uslublardan foydalanib tashkil etish kerakligi bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Kompetensiya, interfaol ta'lim, uslub, natija, jarayon, didaktik qarashlar.

В статье рассматривается значение понятия "компетенция", освещаются дидактические взгляды учёных о процессе интерактивного обучения, раскрыты некоторые преимущества интерактивного процесса обучения в развитии компетенции учащихся.

Ключевые слова. Компетенция, интерактивное обучение, метод, ученик, проблема, результат, дидактические взгляды.

The meaning of the concept "competence" is given in the article and Abu Ali Ibn Sino's didactic views are analyzed in theof interactive training and the advantage of interactive process of training in development of competence of pupils is shown.

Key words. Competence, interactive training, method, interactive process, didactica.

Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida tashkil etilishi va amalga oshirib borilishini ta'minlash mazkur sohadagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Uni hal etish esa, ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy, ilmiy-amaliy hamda tashkiliy-pedagogik yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar, sinovlar, amaliy pedagogik va psixologik tajribalarga asoslangan holdagi tahlil, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish, tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy qilish hamda uzluksiz takomillashtirib borish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda zamonaviy interfaol usullarning ijobiy jihatlari ta'lim jarayonida keng qo'llanib kelinmoqda. Bilimlarni o'rgatish hamda o'rganish jarayonida ta'lim beruvchi va o'quvchilarning o'zaro faolliklari va buning ahamiyati, interfaol usullarni tashkil qilish, takomillashtirish, nazariy va amaliy jihatlarni o'rganish masalasidir. O'tgan asrlarda mutafakkirlar, ustozlar o'z shogirdlari bilan o'tkazgan mashg'ulotlarida, hozirgi davrlarda esa, pedagog olimlar o'z tadqiqotlarida va amaliy faoliyatlarida bunday jarayonlarga jiddiy e'tibor berib kelmoqdalar.

Jumladan, Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab voyaga yetguncha ma'lum tartibda tarbiyalab borish lozimligini qayd etib

o'tgan. Buyuk mutafakkir bolalarni nimalarga o'qitish va uqitish usullari haqida muhim fikrlarni olg'a suradi. Shu o'rinda Ibn Sinoning "Tadbir-ul manozil" asaridagi maxsus bo'limda, bolani o'qitishda qanday didaktik yondoshish zarurligi haqida so'z yuritilgan. Uning ta'kidlashicha:

- Bolani birdan kitobga jalb qilib qo'ymaslik kerak.
- O'qitish asta-sekin osondan qiyinga o'tish yo'li bilan olib borilishi lozim.
- O'quvchilar bilan amalga oshiriladigan tarbiyalarning yoshiga mos bo'lishi shart.
- O'qitish jamoa tarzida uyushtirilishi darkor.
- Bolaning mayli va qobiliyatini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.
- Jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi zarur.
- Bu jarayonda, Ibn Sino o'qituvchining oldiga ham bir nechta talabni qo'yadi.

Uning fikricha:

- Tarbiyachi bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak.
- Pedagog o'quvchilar ta'limni qanday o'zlashtirayotganini kuzatib borishi lozim.
- O'qitish jarayonida pedagog har xil usullarni qo'llashi lozim.
- Pedagog o'quvchining xotirasi va boshqa aqliy qobiliyatini bilishi lozim.
- Pedagog bolalarni tarbiyalashda tegishli jazo choralarini qo'llashi, o'tilganlarni takrorlashga majbur qilish orqali ularni fanga qiziqtirishi kerak.
- Pedagog fikrini o'quvchiga bayon qilishdan oldin masalaning mohiyatiga o'zi tushunib olishi, uni qisqa, aniq, adabiy tilda tushuntirishi, bunda ko'p gapirishdan qochishi lozim.
- Har bir fikr haqiqat bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uyg'otadigan bo'lishi lozim.

Ibn Sino bolalarni yakka tartibda o'qitishdan ko'ra jamoa tartibida o'qitishni afzal deb biladi va bu usulning ustunligi haqida shunday deb yozadi: "O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. O'quvchilar birga bo'lganlarida doim o'zaro gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar".

Allomaning bu fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bolalarni birgalikda, ya'ni interfaol jarayonda o'qitish va tarbiyalash ularda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishi to'g'risida xulosaga kelish mumkin. Bular:

- o'zaro, muloqot-kommunikativ kompetensiya;
- motivatsiya;
- o'ziga ishonch;
- boshqalarning yutug'ini ko'rish, ya'ni tahlil qilish;
- o'z ustida izlanish, ya'ni ijodkorlik;
- sog'lom raqobatni yuzaga keltirish, ya'ni izlanuvchanlik;
- o'z fikrlarini bayon etish, ya'ni notiqlik kompetensiyasini rivojlantiradi.

Umuman olganda, kompetensiya so'zi XX asrning 70-yillarida paydo bo'lib, 80-yillarning oxirlarida pedagogik jarayonga kirib kelgan. Kompetensiya lotin tilidan olingan bo'lib, (competere) – mos, loyiq degan ma'noni anglatadi. XXI asrda o'quvchilarning ta'lim jarayoniga mos, loyqligini bildiruvchi shaxsiy va tayanch kompetensiyadan iborat ikkita asosiy kompetensiyalar yo'nalishini ko'rsatib o'tish mumkin:

Shaxsiy kompetensiyalar (ular o'quvchining shaxs sifatidagi kompetenligini ifodalaydi), bular quyidagilar:

- tarbiyali;

– muloq
– fikrini
– lider,
– o'zini
– jamiy
– umun
– sog'lo
Tayanc
– biliml
– ijodk
– izlan
– zam
– xorij
– tahlil
– oby
O'quv
aytilgan sh
ta'lim mod
hisobga o
lozim.
Abu A
ko'ra, ta'li
avvaldan
bo'ladi.
Interf
darslar, m
tashkil et
sezilari o
chiqilib, k
metodida
varaqlari
O'qit
yozadi va
Bu meto
shakllar
jarayonla
savollar
savollar
umumiy
Bu mavz
o'rniga "
savol, to
1. M
2. M
3. M
4. M

- muloqotga kirishuvchan;
- fikrini mustaqil bayon etuvchi;
- lider, o'ziga ishonuvchi;
- o'zini va o'zgalarni hurmat qiluvchi;
- jamiyatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etuvchi;
- umummadaniy qadriyatlarga ega va ularni hurmat qiluvchi;
- sog'lom turmush tarziga amal qiluvchi.

Tayanch kompetensiyalar:

- bilimli;
- ijodkor;
- izlanuvchan;
- zamonaviy texnologiyadan foydalana oladigan;
- xorijiy tillarni biladigan;
- tahliliy yondasha oladigan;
- obyektiv baholay oladigan.

O'quvchining ta'lim-tarbiya jarayoniga mos bo'lishini, ya'ni uning yuqoridagi aytilgan shaxsiy va tayanch kompetensiyalarini yuzaga keltirish uchun qo'llanilayotgan ta'lim modeli o'quvchining qaysi kompetensiyasini shakllantirishi yoki rivojlantirishini hisobga olgan holda oldindan maqsad qo'yib ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish lozim.

Abu Ali ibn Sino aynan shu masala yuzasidan o'z fikrlarini bayon etgan. Shunga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining kompetensiyasini rivojlantirish masalasi avvaldan ham mavjud ekanligi va hozirgacha o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi ayon bo'ladi.

Interfaol ta'lim jarayonida o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilar o'zaro faol bo'ladigan darslar, mashg'ulotlar jarayonini turli maqsadli, rivojlantiruvchi metodlardan foydalanib tashkil etilganda, an'anaviy darsga ko'ra o'quvchi kompetensiyasini rivojlantirish sezilarli darajada o'sishi tajribalar jarayonida isbotlandi. Muallif tomonidan ishlab chiqilib, ko'p marta sinovlardan o'tkazilgan interfaol metodlardan biri bo'lgan "4 taraf" metodidan foydalanish mumkin. Buning uchun A 4 o'lchamdagi bir nechta qog'oz varaqlari va marker kerak bo'ladi.

O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha muammoni varaqning markaziga yozadi va shu muammoning 4 ta jihatlarini yorituvchi 4 ta savol yoki topshiriq tuzadi. Bu metoddan foydalanish uchun o'qituvchi yakka, juftlikda, guruhli ta'lim berish shakllaridan foydalanishi mumkin. Bularning har biriga muvofiq ravishda savollarni shu jarayonlarga mos tarzda tuzadi, masalan, yakka ta'lim berish shaklidan foydalansa, savollar osonroq, guruhli ta'lim berish shaklidan foydalansa, bir muncha murakkab savollar tuziladi. Masalan, 7-sinfda o'tiladigan darslar boshqa tilda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'zbek tili darsligida "Mahallam" mavzusi mavjud. Bu mavzuni o'tayotgan o'zbek tili o'qituvchisi "4 taraf" metodidan foydalanib, muammo o'rniga "Mahallam" deb yozadi va shu mavzuning 4 ta jihatini yoritish maqsadida 4 ta savol, topshiriq yozadi. Bular:

1. Mahallamning nomi?
2. Mahallam qaysi tumanda joylashgan?
3. Mahallamdagi ko'chalar nomi?
4. Mahallangizni tasvirlang.

Bu jarayonda o'quvchilar yakka tartibda ishlaydilar va savollarga yozma tarzda o'zbek tilida javob beradilar. (A 4 o'lchamdagi qog'ozni ikkiga bo'lib, bo'lingan qog'ozlarga yuqoridagi shakl tushiriladi yoki o'quvchilarning ish daftarlariga shu shaklni chizib jadvallarga berilgan savollarga javoblarni yozish vazifasi topshiriladi).

Vazifani bajarish uchun 4-5 daqiqa vaqt beriladi. Vazifadagi "Mahallangizni tasvirlang", deyilgan topshiriqni bolalar rasm chizish orqali bajarishlari ham mumkinligi aytiladi.

Taqdimotda o'quvchilar o'zlari yozgan javoblarni birin-ketin o'qib beradilar.

Bu jarayon yakunida o'quvchilarning shaxsiy kompetensiyasida:

- o'ziga ishonch, fikrini bayon eta olish;
- umummadaniy qadriyatlarni egallash;
- o'zini va o'zgalarni hurmat qilish, o'zgalar fikrini eshita olish.

Tayanch kompetensiyasida:

- yangi bilim egallash, o'zbek tilidagi ayrim so'zlarni o'rganish va o'z mahallasi haqidagi bilimlarini kengaytirish;

- matematik va geometrik bilimlardan 4 (to'rt), doira, to'rtburchak kabi so'zlarning ma'nolarini anglash;

- izlanuvchanlik, berilgan muammoni hal etish;

- ijodkorlik, rasm orqali tasvirlash;

- tahliliy yondashuv, boshqa o'quvchilarning javoblarini solishtirish;

- bajargan ishning natijasini namoyish qila olish kabi ko'nikmalar rivojlanadi.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, interfaol ta'lim jarayonida o'quvchi kompetensiyasi an'anaviy ta'limga nisbatan samaraliroq shakllanadi va rivojlanadi. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishda faqat ma'lum bir mavzuga oid bilim beraman, deb emas, balki bu jarayon o'quvchida qanday kompetensiyalarni shakllantiradi? Men o'quvchimni kelajakda qanday ko'rmoqchiman? Qanday bola mening nazdimda hozirgi zamon intellektual o'quvchisiga loyiq? O'quvchini bilimli bo'lishi uchun darsimda nimani o'rgatishim lozim kabi bir nechta masalalarni to'g'ri hal eta olsa, bu pedagog kompetentli pedagogdir. Kompetentli pedagoglardan esa, albatta, zamonamizga xos o'quvchilar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zunnunov A., Mahkamov U. *Didaktika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma.* - T.: "Sharq", 2006.

2. Xidoyatova D.A. *Malaka oshirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish / monografiya/.* - T.: "ABUMATBUOTKONSALT", 2014.

Azamat O'ROLOV
Sirdaryo viloyati F

O'ZBEK JARAYON

Ushbu maqolada tahliliy o'rganilgan affiks, shakl va bugungi kun nuqtadagi Kalit so'zlar va mazmun, munda

В статье рас...
В частности, в н...
дов. Также освещ...
стеме морфемик...
Ключевые
тельный анализ.

The article d...
scientists about th...
of great scientists...
changes occurin...
and content.

Key words:
linguist.

Uzluksizlik bormi? Tilni chuqurroq, tarqatib malaka ham tilsiz bir tildan foydalanish. Darhaqiqat bilis har qanday bilis. Bularni inobatga harakat qildik.

Tilshunoslik maslikning oqib fikr yuritib, tilsiz qilmasdan ish